

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANK-MOLIYA AKADEMIYASI  
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.09/31.08.2022.I.151.01 RAQAMLI ILMY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANK-MOLIYA AKADEMIYASI**

**SHAVKATOV NAVRUZBEK SHAVKATOVICH**

**DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK AMALIYOTIDA MOLIYAVIY  
MUNOSABATLARNI TASHKIL ETISH METODOLOGIYASINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit**

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent shahri – 2023-yil**

**Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата докторской (DSc) диссертации**

**Contents of the doctoral (DSc) dissertation abstract**

**Shavkatov Navruzбек Shavkatovich**

Davlat-xususiy sheriklik amaliyotida moliyaviy munosabatlarni tashkil etish metodologiyasini takomillashtirish.....3

**Шавкатов Наврузбек Шавкатович**

Совершенствование методологии организации финансовых отношений в практике государственно-частного партнерства .....37

**Shavkatov Navruzбек Shavkatovich**

Improving the methodology of organizing financial relations in the practice of public-private partnership .....73

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....79

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANK-MOLIYA AKADEMIYASI  
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.09/31.08.2022.I.151.01 RAQAMLI ILMY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANK-MOLIYA AKADEMIYASI**

**SHAVKATOV NAVRUZBEK SHAVKATOVICH**

**DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK AMALIYOTIDA MOLIYAVIY  
MUNOSABATLARNI TASHKIL ETISH METODOLOGIYASINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit**

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent shahri – 2023-yil**

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyada B2023.2.DSc/Iqt498 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Doktorlik dissertatsiyasi O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.bfa.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy maslahatchi:** **Elmirzayev Samariddin Eshkuvatovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:** **Berdiyarov Baxriddin Tavasharovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Xaydarov Nizamiddin Xamrayevich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:** **G.V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universitetining Toshkent shahridagi filiali**

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.9/31.08.2022.I.151.01 raqamli ilmiy kengashning 2023 yil "30" 08 soat 10.00 da majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Movarounnaxr ko'chasi, 16-uy. Tel.: (99871) 237-54-09, faks: (99871) 237-50-11. e-mail: office@bfa.uz.

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (32 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Movarounnaxr ko'chasi 16-uy. Tel.: (99871) 237-54-09, faks: (99871) 237-50-11. e-mail: office@bfa.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil "18" 08 kuni tarqatildi.  
(2023 yil "18" 08 da 1 raqamli reestr bayonnomasi).



**N.X. Jumayev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

**Sh.A. Xusainov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, i.f.n., dots.

**D.N. Husanov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi v.v.b., i.f.d., dots.

## KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon hamjamiyatining iqtisodiy integratsiyalashuv jarayonida davlat va xususiy biznes subyektlari o'rtasida moliyaviy munosabatlar tizimi global miqyosda rivojlanmoqda. So'nggi yillarda infratuzilmani xususiy biznesning resurslari orqali moliyalashtirish darajasi keskin tushib ketganligi, xususan, "2022-yilda Yevropa va Markaziy Osiyo mamlakatlari 3,3 milliard AQSh dollari miqdorida infratuzilmaga xususiy investitsiyalar bilan bu mintaqadagi so'nggi 10 yildagi eng past ko'rsatkichni qayd etganligi"<sup>1</sup> jahon iqtisodiyoti tarmoqlarida xususiy investitsiyalar ko'lamini oshirish, hamda davlat-xususiy sheriklik (Public-Private Partnership) amaliyotida moliyaviy munosabatlarni tashkil etish metodologiyasini takomillashtirish, xususan, xususiy investorlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash, loyihalarda sheriklar uchun risklarni kamaytirish, xususiy sherik uchun daromad olishni kafolatlash orqali loyihaga jalb etishni kengaytirish, kapital tarkibini optimallashtirish va qo'llaniladigan moliyaviy instrumentlarni diversifikatsiya qilish dolzarb ekanligini namoyon qilmoqda.

Jahonda davlat-xususiy sheriklik amaliyotida moliyaviy munosabatlarni tashkil etish metodologiyasini takomillashtirish, xususan, infratuzilmani moliyalashtirishda xususiy sektor mablag'laridan samarali foydalanish, moliyaviy qarorlar qabul qilishning ilmiy asoslarini takomillashtirish, ijtimoiy infratuzilmani davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari orqali rivojlantirish, davlat-xususiy sheriklikda qo'llanilishi mumkin bo'lgan moliyaviy instrumentlarni kengaytirish, xususiy investorlarning infratuzilmani moliyalashtirish xarajatlarining bir qismini qoplash orqali moliyaviy rag'batlantirish va subsidiyalar berish vositasida manfaatdorligini oshirish, mulkiy va qarz munosabatlarida sheriklarning pozitsiyalarini belgilash, davlat kafolatlarini kengaytirish, moliyaviy risklarni adolatli taqsimlash, davlat-xususiy sheriklik munosabatlarining iqtisodiyot taraqqiyotiga ta'sir darajasini oshirish borasida ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

O'zbekistonda ta'lim, sog'liqni saqlash, kommunal xo'jalik, energetika, transport, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari kabi sohalarni rivojlantirish dolzarb bo'lib turgan ayni vaqtda davlat-xususiy sheriklik amaliyoti va bunda yuzaga keladigan moliyaviy munosabatlarni samarali tashkil etish, ijtimoiy muhim infratuzilma loyihalarini amalga oshirishda xususiy sektor mablag'laridan foydalanish borasidagi islohotlarga qaramasdan, sohaga xususiy sektor mablag'larini yo'naltirish darajasi pastligicha qolmoqda. "Davlat-xususiy sheriklik asosida energetika, transport, sog'liqni saqlash, ta'lim, ekologiya, kommunal xizmatlar, suv xo'jaligi va boshqa sohalariga 14 milliard AQSh dollariga teng investitsiya jalb etish"<sup>2</sup> da davlat va biznesning hamkorligini zamonaviy shakllarda tashkil etish, loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini aniqlash, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan vazifalarni o'zaro manfaatli sharoitlarda tezkorlik bilan hal

<sup>1</sup> The World Bank. (2022). The private participation in infrastructure (PPI) project database. Washington, DC <https://ppi.worldbank.org/en/ppidata>.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni

etish, shuningdek, davlat-xususiy sheriklik tizimini samarali boshqarish va muvofiqlashtirish talab etilmoqda. Bu esa davlat va xususiy sheriklik amaliyotida moliyaviy munosabatlarni tashkil etish metodologiyasini takomillashtirishga doir ilmiy tadqiqotlarni keng doirada amalga oshirish zaruriyatini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2023-yil 28-fevraldagi PF-27-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e‘tibor va sifatli ta‘lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2018-yil 20-oktyabrdagi PQ-3980-son “Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirishning huquqiy va institutsional bazasini yaratish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2023-yil 10-apreldagi PQ-118-son “Ijtimoiy soha obyektlarining isitish tizimlarini davlat-xususiy sheriklik asosida modernizatsiya qilish to‘g‘risida”gi Qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 11-avgustdagi 509-son “Davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida”gi, 2020-yil 26-aprelda 259-son “Davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida”gi Qarorlari, shuningdek mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

### **Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi<sup>3</sup>.**

Davlat-xususiy sheriklik amaliyotida moliyaviy munosabatlarning metodologik asoslarini takomillashtirish bilan bog‘liq ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta‘lim muassasalarida, jumladan, The Public-Private Infrastructure Advisory Facility (PPIAF), The Global Infrastructure Facility (GIF), United Nations Economic and Social Commission for Asia and the Pacific (ESCAP), United Nations Economic Commission for Europe (UNECE) – PPP Activities, International Project Finance Association (IPFA), The APMG Public-Private Partnerships Certification Program, Asian Development Bank’s (ADB) Regional and Sustainable Development Department (RSDD), Public-Private Sector Research Center (PPSRC), Национальный Центр ГЧП (Rossiya Federatsiyasi) tomonidan amalga oshirilmoqda.

Jahonda davlat-xususiy sheriklik amaliyotida moliyaviy munosabatlarni tashkil etish metodologiyasini takomillashtirish bo‘yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida qator ilmiy natijalar olingan. Jumladan: rivojlanayotgan

---

<sup>3</sup> Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi quyidagi manbalar asosida ishlab chiqilgan: <https://ppiaf.org/>, <https://www.globalinfrafacility.org/>, <https://www.unescap.org/>, <https://unece.org/>, <https://www.ipfa.org/>, <https://ppp-certification.com/>, <https://www.adb.org/>, <https://www.iese.edu/faculty-research/research-centers/ppsrc-public-private-sector-research-center/>, <https://ppp.worldbank.org/public-private-partnership/library/public-utility-research-center-purc>, <https://pppcenter.ru/>,

iqtisodiyotlarda infratuzilmaga xususiy investitsiya kiritishni rag‘batlantirish uchun zarur bo‘lgan iqtisodiy-huquqiy, institutsional imkoniyatlarni yaratishda davlat-xususiy sheriklik amaliyotini yanada kengaytirish orqali davlat sektori, investorlar, mahalliy korxonalar iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirishda va eng muhimi, aholining yashash tarzini yaxshilashga qaratilgan loyihalarni rivojlantirish asoslari ishlab chiqilgan (The Public-Private Infrastructure Advisory Facility – PPIAF); mamlakatda infratuzilmaga investitsiyalar kiritishda xususiy sektor ishtirokini oshirish, global miqyosda infratuzilmani rivojlantirish va unda xususiy sektor ishtiroki darajasini baholab beruvchi metodologik tizim yaratilgan (The Global Infrastructure Facility – GIF); dunyoning barcha mamlakatlarida, xususan Osiyo va Tinch okeani davlatlarida xususiy investitsiyalar ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati va samaradorligini ta‘minlovchi mexanizmlari tadqiq etilgan (United Nations Economic and Social Commission for Asia and the Pacific – ESCAP); Yevropa davlatlarida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, infratuzilmaga investitsiyalar samaradorligini nazorat qilish jarayonlarini tadqiq etilgan (United Nations Economic Commission for Europe (UNECE) – PPP Activities); dunyoning barcha mamlakatlarida xususiy investitsiyalar hajmi, sifati va samaradorligini ta‘minlovchi mexanizmlari tadqiq etilgan (International Project Finance Association – IPFA); rivojlanayotgan mamlakatlarda ijtimoiy soha infratuzilmasini rivojlantirish, xususiy sektorni infratuzilmani moliyalashtirishga yo‘naltirishni tashkil etish talablari va mezonlari ishlab chiqilgan (The APMG Public-Private Partnerships Certification Program); Osiyo mamlakatlarida aholining yashash tarzini yaxshilash, mamlakatlar infratuzilmasi sifatini yaxshilash, infratuzilmani maqsadli kreditlash, investitsion dasturlarni faol joriy qilish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan (Asian Development Bank’s Regional and Sustainable Development Department – ADB RSDD); davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari, nazariy-iqtisodiy asoslari, moliyalashtirish yo‘nalishlari va shakllari doirasida ilmiy tadqiqotlar qilingan (Public-Private Sector Research Center – PPSRC); davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, uni moliyalashtirishni isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha ilmiy-amaliy uslubiyot shakllantirilgan (Национальный Центр ГЧП – Rossiya Federatsiyasi).

Xalqaro amaliyotda davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini rivojlantirish, mamlakat iqtisodiyotida o‘ziga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirishning ilmiy-metodologik, uslubiy va amaliy asoslarini takomillashtirish bo‘yicha qator, jumladan, quyidagi ustuvor yo‘nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish maqsadida zamonaviy moliyaviy instrumentlarni qo‘llash; davlat-xususiy sheriklik sohasiga raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali loyihalar samaradorligini baholash; infratuzilmaga investitsiyalar hajmini oshirishda zamonaviy bozor instrumentlaridan foydalanishni takomillashtirish; turli xil modellarni qo‘llash yo‘nalishlari; raqobat darajasini oshirish; investorlarning loyihalarda ishtirokini oshirish va xizmatlar sifatini yaxshilashga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish kabilar.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Davlat-xususiy sheriklik munosabatlari, yuzaga kelishi va amalga oshirish mexanizmlari, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidagi o‘rni va rivojlanishiga ta’siri, xususiy sektorni davlat-xususiy sheriklik munosabatlariga yo‘naltirish masalalari, davlat-xususiy sheriklik amaliyotida moliyaviy munosabatlarni tashkil etish metodologiyasini takomillashtirishning ayrim jihatlari bir qator xorijlik iqtisodchi olimlar E.Yeskomb, H.Yurdakul, R.Kamasak, H.Buffet, V.Emike, M.Friedman, C.Sharma, B.Shahi, R.Nurske, A.Hirschman, D.Biehl, A.Filipkowska, D.Trajanovskilarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan<sup>4</sup>. MDH mamlakatlari iqtisodchi olimlaridan Ye.Dinin, S.Chernov, I.Suxanov, M.Filchenkova, T.Mataev, V.Sazonov, J.Avilova, O.Gerasimenko, L.Rudenko va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida davlat-xususiy sheriklik amaliyotida moliyaviy munosabatlar, xususiy investorlarni jalb etish masalalariga to‘xtalib o‘tilgan<sup>5</sup>.

Davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi moliyaviy munosabatlarning ayrim jihatlari, loyihalarning samaradorligini aniqlash, davlat-xususiy sheriklik loyihalarini moliyalashtirish amaliyotining ayrim muammolari mamlakatimiz iqtisodchi olimlari K.Xomitov, S.Yunusova, O‘.Rajabov S.Elmirzayev, B.Toshmurodova, N.Tursunova, J.Qurbonov, U.Jumaniyazov, D.Mamayusupova, Q.Utegenovlarning ilmiy-tadqiqot ishlarida o‘rganilgan<sup>6</sup>.

---

<sup>4</sup> Йескомб Э.П. Государственно-частное партнерство: основные принципы финансирования (Public-Private Partnership Principles of Policy and Finance.) — М.: Альпина Паблишер, 2015. - 457 с.; Yurdakul, H., & Kamasak, R. (2020). Investment through public private partnership (PPP): The impact of PPP activities on the growth of GDP. *PressAcademia Procedia*, 11, 150e152. <https://doi.org/10.17261/Pressacademia.2020.1257>, Howard W. Buffet and William B. Eimicke. *Social value investing: a management framework for effective partnerships*, Columbia University Press, 2018; Milton Friedman. *The Social Responsibility of Business is Increase its Profits*. *The New York Times Magazine*, 1970; Sharma, C. (2012). Determinants of PPP in infrastructure in developing economies. *Transforming Government: People, Process and Policy*, 6(2), 149e166.; Mr. BikramShahi. *Impact of Infrastructure Development on Society: A Case Study of the Narayan Municipality ward No. 1*, Dailekh. Exam Roll No: 281391 T.U Registration No: 6-2-55-809-2004 Central Department of Rural Development Faculty of Humanities & Social Sciences Tribhuvan University Kathmandu, Nepal. August, 2012, p 6.; Nurske R., *Problems of capital formulation in developing countries*, Basil Blackwell, Oxford, UK.1953, p239.; Hirschmann A.O., *The strategy of economic development*, Yale University Press, New Haven, CT. 1958, p 96.; Biehl, D., *The role of infrastructure in regional policy*, OECD, Paris. 1994, p34; Wojewnik-Filipkowska, Anna & Trojanowski, Dariusz. (2013). *Principles of Public-Private Partnership Financing – Polish Experience*. *Journal of Property Investment and Finance*. 31. 10.1108/JPIF-10-2012-0049.

<sup>5</sup> Дынин Е.А. Риски бизнеса в частно-государственном партнерстве // *Общество и экономика*. 2007. № 5-6. С.111.; Чернов С.С., Суханов И.С. Вопросы оценки эффективности реализации социально значимых проектов // *Бизнес. Образование. Право. Вестник Волгоградского института бизнеса*. 2016. № 4 (37). С. 92–97.; Чернов С.С., Фильченкова М.В. Государственно-частное партнерство: понятие, признаки, внешние эффекты // *Бизнес. Образование. Право. Вестник Волгоградского института бизнеса*. 2017. № 3 (40). С. 78–82.; Mataev T.M. *Формы государственно-частного партнерства при реализации инфраструктурных проектов // Государственно-частное партнерство*. 2015. Том 1. № 1. С. 9–18; Сазонов В.Е. *Преимущества, недостатки и риски государственно-частного партнерства // Вестник Российского университета дружбы народов*. 2012. № 3. С. 99–108, Авилова Ж. Н., Герасименко О. А. *Сущность, признаки и проблемы развития организационно-правовых форм государственно-частного партнерства в России // Вестник БГТУ им. В. Г. Шухова*. 2016. № 10. С. 260–266.; Руденко Л.Г. *Моделирование современного государственно-частного партнерства как института развития инфраструктуры поддержки малого предпринимательства // Бизнес. Образование. Право. Вестник Волгоградского института бизнеса*. 2016. № 3 (36). С. 109–115.

<sup>6</sup> Хомитов К.З., *Актуальные вопросы кредитования инвестиционных проектов в Узбекистане // Бюллетень науки и практики*. 2019. Т. 5. №4. С. 353-358. <https://doi.org/10.33619/2414-2948/41/50>, Yunusova S.B. “Davlat-xususiy sheriklik asosida infratuzilma loyihalarini amalga oshirish va moliyalashtirishni rivojlantirish. PhD dissertatsiyasi avtoreferati, Toshkent, 2022 yil.; Rajabov O‘.D. "Sog‘liqni saqlashda davlat xususiy sheriklik shartlarining iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish" *Iqtisod va moliya (Uzbekistan)*, №. 3 (135), 2020, pp. 124-128., Elmirezayev S.E., *Korporativ moliya: darslik*, T.: “Iqtisod-moliya”, 2019. 364 b., Toshmurodova B.E.,



Davlat-xususiy sheriklik amaliyotida moliyaviy munosabatlarni takomillashtirishga oid ilmiy tadqiqotlar, xususiy investorlarni moliya bozori instrumentlari orqali davlat-xususiy sheriklik munosabatlariga jalb etish yoʻnalishlari B.Ashuri, F.Ullah, M.Thahaem, H.Sin, S.Liu, J.Sun, F.Daniel, A.Lebedovalarning ilmiy-tadqiqot ishlarida oʻrganilgan<sup>7</sup>.

T.Atamurodov va B.Xamroyevlar oʻzlarining ilmiy-tadqiqot ishlarida xususiy tarmoq va davlat hamkorligi masalasi, infratuzilmani xususiy tarmoq mablagʻlari hisobidan moliyalashtirishning ayrim jihatlariga toʻxtalib oʻtgan<sup>8</sup> boʻlsa-da, davlat-xususiy sheriklik amaliyotida moliyaviy munosabatlar yetarlicha tadqiq etilmagan.

N.Oblomurodov tomonidan davlat-xususiy sheriklik asosida toʻgʻridan-toʻgʻri xorijiy investitsiyalarni jalb etish masalalariga, transport sohasida davlat-xususiy sheriklik amaliyotini moliyalashtirishning ayrim jihatlariga toʻxtalib oʻtilgan<sup>9</sup>.

S.Yakubova esa davlat-xususiy sheriklik mexanizmi doirasida investitsion va ijtimoiy majburiyatlar ijrosini taʼminlash, maktabgacha taʼlimni rivojlantirishning hududiy dasturlarini shakllantirish va ushbu dasturlarda mazkur muassasalarga xizmat koʻrsatuvchi infratuzilmalar faoliyatini muvofiqlashtirishning moliya-kredit (soliq, investitsiya, kredit) mexanizmiga asoslangan tabaqalashtirilgan tizimini tatbiq etish masalalari borasida fikrlar bildirgan<sup>10</sup>.

S.Xayitov oʻzining ilmiy tadqiqotlarida davlat-xususiy sheriklik loyihalarini alohida kichik hajmli moliyaviy DXSh loyihalariga ajratish orqali hududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy soha tarmoqlari faoliyati samaradorligini taʼminlash borasida fikrlar bildirgan<sup>11</sup>.

Yana bir iqtisodchi J.Toxirov oʻzining tadqiqotlarida taʼlim sohasidagi davlat-xususiy sheriklikning tashkiliy-iqtisodiy elementlari tarkibidagi xususiy investitsiya, davlat budjetidan moliyalashtirish, subsidiya berish, ssuda olish va

---

Tursunova N.R. Moliyaviy menejment: Darslik – T.: «Iqtisod-moliya», 2017. - 336 b.; Kurbonov J., Public and Private Sector Relations for Economic Growth: Evidence from Uzbekistan (March 10, 2016). European Journal of Business and Management, Vol. 8, No. 6, 2016; U.I.Djumaniyazov. Davlat-xususiy sherikchiligi asosida uy-joy qurilishi sohasida korporativ boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish, . PhD dissertatsiyasi avtoreferati, -T.: TDIU -2017y.; Mamayusupova D.B. Davlat-xususiy sherikligi asosida turistik salohiyatni boshqarish (Fargʻona viloyati misolida), PhD dissertatsiyasi avtoreferati, Toshkent, 2022 yil.; Utegenov Q.D. Qishloq xoʻjaligida davlat-xususiy sherikchiligi asosida lizing munosabatlarini takomillashtirish, PhD dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent, 2022

<sup>7</sup> Ashuri B. et al. Risk-neutral pricing approach for evaluating BOT highway projects with government minimum revenue guarantee options, Journal of Construction Engineering and Management, 2011.13.8. (2011), pp.545-557; Ullah F., Thahaem M.J. et al., A review of public-private partnership: Critical factors of concession period Journal of Financial Management of Property and Construction, 21 (3) (2016), pp. 269 300, 2016; H. Jin, S. Liu and J. Sun et al., Determining concession periods and minimum revenue guarantees in public- private-partnership agreements, European Journal of Operational Research; Daniel F. R. Quality Infrastructure: Ensuring Sustainable Economic Growth. The Center for Strategic and International Studies (CSIS). January 2017, p4.; Лебедева А.В. Привлечения внебюджетного финансирования при помощи биржевых инструментов для реализации проектов государственно-частного партнёрства // Экономика и менеджмент инновационных технологий. 2016. № 3. - Режим доступа: <http://ekonomika.snauka.ru/2016/03/10992>

<sup>8</sup> Atamurodov T., Xamroyev B. Xususiy tarmoq va davlat hamkorligi. Monografiya, Toshkent moliya instituti, –T.: —Iqtisod-Moliya, 2013. - 96 b

<sup>9</sup> Oblomurodov N.N. “Davlat-xususiy sheriklik asosida toʻgʻridan-toʻgʻri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish” “Xalqaro moliya va hisob” ilmiy elektron jurnali. № 6, dekabr, 2018 yil, 3-bet.

<sup>10</sup> Yakubova S.S. « Oʻzbekistonda davlat-xususiy sheriklik asosida maktabgacha taʼlim tizimini moliyalashtirishni takomillashtirish», PhD dissertatsiyasi avtoreferati, Toshkent, 2023 yil.

<sup>11</sup> Xayitov S.B. «Oʻzbekiston Respublikasida barqaror iqtisodiy oʻsishni taʼminlashda davlat-xususiy sheriklik mexanizmini takomillashtirish», PhD dissertatsiyasi avtoreferati, Toshkent, 2022 yil.

soliq imtiyozlarini joriy qilishning optimal me'yorlarini belgilash orqali ta'lim xizmatlari sifati va samaradorligini oshirishga doir ilmiy qarashlarini keltirib o'tgan<sup>12</sup>.

Davlat-xususiy sheriklik munosabatlari mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun yangi yo'nalishlardan biri hisoblanib, uni amalga oshirish mexanizmi va davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash shakllari, uning boshqa muqobil moliyalashtirish usullaridan farqli jihatlari, infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishda yangi imkoniyatlarini aniqlash, bunday loyihalarning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini baholash, mavjud risklarni pasaytirish orqali xususiy investitsiyalarni infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishga yo'naltirishni takomillashtirish zarurligi ushbu mavzuda ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishni talab etadi va dissertatsiya mavzusining dolzarbligini belgilab beradi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasining "Jahon iqtisodiyotining globallashuvi va O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi sharoitida bank-moliya, soliq va investitsiya faoliyatini modernizatsiyalash muammolarini ilmiy ishlab chiqish" ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** O'zbekistonda davlat-xususiy sheriklik amaliyotida moliyaviy munosabatlarni tashkil etish metodologiyasini takomillashtirishga doir ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari** quyidagilardan iborat:

davlat-xususiy sheriklik amaliyotida moliyaviy munosabatlarning fundamental asoslarini tahlil qilish asosida nazariy va metodologik yondashuvlarni shakllantirish;

davlat va xususiy sheriklik amaliyotida moliyaviy munosabatlarning tashkiliy-huquqiy asoslari hamda amalga oshirish shakllarini o'rganish;

infratuzilma loyihalarini amalga oshirishda davlat va xususiy sektor hamkorligining moliyaviy mexanizmini tadqiq qilish;

davlat-xususiy sheriklik asosida infratuzilmani moliyalashtirishning asosiy yo'nalishlarini belgilash;

davlat-xususiy sheriklik asosidagi loyihalar va ularning moliyaviy samaradorlik ko'rsatkichlari baholash;

davlatning DXSh loyihalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash yo'nalishlari tadqiqini o'tkazish;

xalqaro amaliyotda infratuzilma loyihalarini xususiy sektor ishtirokida moliyalashtirish amaliyotini va davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini rivojlantirishning asosiy jihatlari ochib berish;

yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish yo'nalishlarini belgilash;

---

<sup>12</sup> Toxirov J.R. "Ta'lim xizmatlari sifati oshirishda davlat-xususiy sheriklikning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini shakllantirish", PhD dissertatsiyasi avtoreferati, Toshkent, 2022 yil.

davlat-xususiy sheriklik loyihalarida xususiy sektor moliyaviy mablag‘laridan foydalanishda biznes ijtimoiy mas’uliyati va xususiy sektor ishtirokini kengaytirish yo‘nalishlari bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekt**i sifatida O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan davlat-xususiy sheriklik asosidagi loyihalar olingan.

**Tadqiqotning predmet**i davlat-xususiy sheriklik amaliyotida moliyaviy munosabatlarni tashkil etish metodologiyasini takomillashtirish jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada guruhlash, qiyosiy taqqoslash, tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, ekonometrik tahlil, iqtisodiy va matematik modellash, SWOT-tahlil, prognozlash va monografik kuzatish usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

maktabgacha ta‘lim sohasida davlat-xususiy sheriklik loyihalarida kelgusida kutilayotgan daromad va xarajatlar joriy qiymatini aniqlashda diskont stavkani qisqa muddatli davlat obligatsiyalarining yillik daromad stavkalaridan kam bo‘lmagan miqdorlarda belgilash asoslangan;

xususiy sherikka ijtimoiy loyihalar doirasida talabalar turar joyi qurish uchun davlat sherigi tomonidan loyiha dastlabki bosqichida xususiy sherikning bankdagi hisobvarag‘iga loyiha umumiy qiymatining 15 foizi miqdorida subsidiyalar ajratish taklif etilgan;

davlat-xususiy sheriklik loyihalarini bank kreditlari orqali moliyalashtirishda xususiy investorlarni rag‘batlantirish maqsadida kredit liniyalarini Markaziy bank qayta moliyalashtirish stavkasi miqdoridagi foiz stavkasiga tijorat bankining 2 foizdan ko‘p bo‘lmagan marjasini qo‘shish orqali xususiy sherikga taqdim etish taklif etilgan;

ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishga qaratilgan davlat-xususiy sheriklik loyihalarini boshqarish va ekspluatatsiya qilish davri davomida xususiy sherik tomonidan loyiha qiymatining kamida 50 foiz miqdorini moliyalashtirish va obyektlarni ekspluatatsiya qilish muddatini 10 yildan kam bo‘lmagan muddatda belgilash taklif etilgan;

energetika sohasida davlat-xususiy sheriklik loyihalarida xususiy investorlarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash maqsadida “yashil energiya” bank moliya produktlarni joriy etish hisobiga moliyalashtirish asoslangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

davlat-xususiy sheriklik amaliyotida moliyaviy munosabatlarining muhim jihatlari, infratuzilmani rivojlantirishdagi o‘rni va ahamiyati, moliyalashtirish usullari ilmiy asoslangan;

davlat-xususiy sheriklik loyihalarini tashkil etishda maxsus loyiha kompaniyasi (SPV) tashkil etish orqali loyihani amalga oshirish mexanizmlari tadqiq etilgan;

davlat-xususiy sheriklik loyihalarida xususiy sherikni moliyaviy rag‘batlantirish va xususiy kapital samaradorligini oshirish hamda moliyaviy

leveraj samarasiga erishishi uchun qarz kapitali orqali moliyalashtirish taklif etilgan;

ijtimoiy sohadagi investitsion loyihalarni boshqarish va ekspluatatsiya qilish davri davomida xususiy sheriklar tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar tegishli yilda mahalliy budjet parametrlarida ushbu maqsadlar uchun ko'zda tutilgan mablag'lar, shuningdek, mavjud shtat birliklarini qisqartirish hamda energiya resurslarini tejash hisobiga iqtisod qilinadigan mablag'lar hisobidan moliyalashtirish taklif etilgan;

davlat-xususiy sheriklik asosida amalga oshirilayotgan loyihalarda ijtimoiylik prinsipidan kelib chiqib ijtimoiy sof joriy qiymat (SNPV) ko'rsatkichi bo'yicha moliyaviy samaradorlikni hisobga olgan holda loyihalarni amalga oshirish asoslangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** yetakchi iqtisodchi olimlarning davlat-xususiy sheriklik amaliyotini rivojlantirish, moliyaviy munosabatlarni takomillashtirishda zamonaviy instrumentlarni joriy etish imkoniyatlari, moliyaviy munosabatlarning nazariy va amaliy muammolariga bag'ishlangan tadqiqot mualliflarining ilmiy qarashlarini o'rganish, ilg'or xorij tajribasini tadqiq etish va umumlashtirish, foydalanilgan ma'lumotlarning Jahon banki va boshqa xalqaro tashkilotlarning rasmiy manbalariga va milliy darajada O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi va boshqa tegishli tashkilotlarning statistik ko'rsatkichlariga asoslanganligi hamda tahlil qilish orqali ilmiy-nazariy xulosalar shakllantirilganligi bilan belgilanadi

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ishlab chiqilgan takliflar davlat-xususiy sheriklik amaliyotini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish hamda davlat-xususiy sheriklikda moliyaviy munosabatlarni takomillashtirish va sohani rivojlantirishga oid ilmiy- tadqiqot ishlarni amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalardan davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini rivojlantirish va moliyaviy munosabatlarni takomillashtirish, xalqaro moliya institutlari mablag'lari, aholining bo'sh pul mablag'larini jalb etishda, kelgusida yaratiladigan me'yoriy-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Davlat-xususiy sheriklik amaliyotida moliyaviy munosabatlarni tashkil etish metodologiyasini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

maktabgacha ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklik loyihalarida kelgusida kutilayotgan daromad va xarajatlar joriy qiymatini aniqlashda diskont stavkani qisqa muddatli davlat obligatsiyalarining yillik daromad stavkalaridan kam bo'lmagan miqdorlarda belgilash taklifi O'zbekiston Respublikasi

Prezidentning 2022-yil 14-iyuldagi PQ-322-son “Maktabgacha ta’lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni yanada rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorida aks ettirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi huzuridagi Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish agentligining 2023-yil 6-yanvardagi 44-01/09-32/58-son ma’lumotnomasi). Natijada, maktabgacha ta’lim sohasida DXSh loyihalaridan kutilayotgan daromad va xarajatlarni pulning vaqt bo‘yicha qiymati omilida joriy qiymatlarini aniqlash xususiy investorning real kutilayotgan daromadligini ta’minlashga hamda davlat-xususiy sheriklik loyihalarini davomiyligi uzoq muddat talab etishini hisobga olgan holda bunday moliyaviy munosabatlarni tashkil etish orqali xususiy investorlar uchun moliyaviy risklar kamaytirilishga erishilgan. Shuningdek, 2022-yilning o‘zida maktabgacha ta’lim sohasida 300 dan ortiq DXSh loyihalari bo‘yicha bitimlar imzolangan;

xususiy sherikka ijtimoiy loyihalar doirasida talabalar turar joyi qurish uchun davlat sherigi tomonidan loyiha dastlabki bosqichida xususiy sherikning bankdagi hisobvarag‘iga loyiha umumiy qiymatining 15 foizi miqdorida subsidiyalar ajratish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 6-maydagi “Talabalar turar joylarini davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida qurish uchun O‘zbekiston Respublikasi davlat budjetidan subsidiya ajratish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 239-son qarorida aks ettirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi huzuridagi Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish agentligining 2023-yil 6-yanvardagi 44-01/09-32/58-son ma’lumotnomasi). Ushbu taklifning amaliyotga tatbig‘i natijasida talabalar turar joylarini qurilishini davlat-xususiy sheriklik asosida amalga oshirish va bunda xususiy sherikni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash maqsadida davlat budjeti mablag‘laridan subsidiyalar ajratilishi ta’minlangan hamda 2022-yilda mamlakatimizda 10 ta shunday turdagi davlat-xususiy sheriklik loyihalari uchun 100 mlrd. so‘mdan ko‘proq subsidiyalar ajratilgan;

davlat-xususiy sheriklik loyihalarida bank kreditlari orqali moliyalashtirishda xususiy investorlarni rag‘batlantirish maqsadida kredit liniyalarini Markaziy bank qayta moliyalashtirish stavkasi miqdoridagi foiz stavkasiga tijorat bankining 2 foizdan ko‘p bo‘lmagan marjasini qo‘shish orqali xususiy sherikga taqdim etish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 11-avgustdagi 509-son “Davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirishni jadallashtirish va ularni moliyalashtirish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorida aks ettirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi huzuridagi Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish agentligining 2023-yil 6-yanvardagi 44-01/09-32/58-son ma’lumotnomasi). Ushbu taklifning amaliyotga tatbiq etilishi natijasida davlat-xususiy sheriklik loyihalarida xususiy investorlarni moliyaviy resurslar bilan ta’minlashda adolatli shartlarda kredit mablag‘laridan foydalanish imkoniyati yaratilgan hamda 2021–2022-yillarda tijorat banklari tomonidan davlat-xususiy sheriklikni moliyalashtirish uchun qulay shartlarda 250,0 milliard so‘mdan ortiq kredit mablag‘lari yo‘naltirilgan;

ijtimoiy sohadagi investitsion loyihalarni boshqarish va ekspluatatsiya qilish davri davomida xususiy sherik tomonidan loyihani moliyalashtirishni loyiha qiymatining kamida 50 foizi miqdorida va obyektlarni ekspluatatsiya qilish muddatini 10 yildan kam bo'lmagan muddatda belgilash taklifi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 7-maydagi «Toshkent shahri issiqlik ta'minoti tizimini davlat-xususiy sheriklik asosida yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 241-son Qarorida o'z aksini topgan (O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi huzuridagi Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish agentligining 2023 yil 6 yanvardagi 44-01/09-32/58-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklifni amaliyotga joriy etilishi natijasida, ijtimoiy sohada amalga oshirilayotgan davlat-xususiy sheriklik loyihalarini moliyalashtirishda xususiy investorlar ishtirokini oshirish, loyihalarni muddatini 10 yildan ortiqroq belgilash orqali xususiy investorning loyihadan oladigan daromadini va samaradorligini oshirishga erishildi. Shuningdek, belgilangan shartlarda 2022-yilda ijtimoiy sohada 6 ta davlat-xususiy sheriklik loyihasi bo'yicha bitimlar imzolanishga erishilgan;

energetika sohasida davlat-xususiy sheriklik loyihalarida “yashil energiya” bank moliya produktlarni joriy etish hisobiga xususiy investorlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash orqali loyihalarga jalb etish taklifi orqali energetika sohasida davlat-xususiy sheriklikni yanada rivojlantirish va xususiy investorlarni kengroq jalb etish maqsadida amaliyotga joriy qilindi (O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi huzuridagi Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish agentligining 2023-yil 6-yanvardagi 44-01/09-32/58-son ma'lumotnomasi). Natijada, 2022-yilda davlat-xususiy sheriklik loyihalarini davomiyligi uzoq muddat davom etishini hisobga olgan holda xususiy investorlarni qo'shimcha moliyaviy risklardan himoyalashga, loyihalarga qo'shimcha moliyaviy resurslarni yo'naltirishga hamda energetika sohasida 14 ta yirik hajmdagi DXSh loyihalari bo'yicha bitimlar imzolanishiga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Ushbu tadqiqot natijalari bo'yicha 5 ta respublika va 5 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan va ijobiy xulosalar olingan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 38 ta ilmiy ish, jumladan 3 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 25 ta ilmiy maqola, jumladan 13 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan tarkib topgan. Dissertatsiya hajmi 204 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi va muammoning o‘rganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi aks ettirilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, usullari, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinishi, aprobatsiyasi, e‘lon qilinganligi hamda dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi to‘g‘risida ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Davlat-xususiy sheriklikda moliyaviy munosabatlarni tashkil etishning nazariy va iqtisodiy asoslari”** deb nomlangan bo‘lib, mazkur bobda davlat-xususiy sheriklik amaliyotida moliyaviy munosabatlarning o‘ziga xos jihatlari tadqiq etilgan. Xususan, davlat-xususiy sheriklik amaliyotida moliyaviy munosabatlarning fundamental asoslarini tahlil qilish asosida nazariy va metodologik jihatlari, infratuzilma loyihalarini amalga oshirishda davlat va xususiy sektor hamkorligining moliyaviy mexanizmi o‘rganilgan. Tadqiqot vazifalaridan kelib chiqqan holda nazariy natija va xulosalar shakllantirilgan.

Davlat bilan xususiy biznes hamkorligi umummilliy va iqtisodiy ahamiyatga molik yirik loyihalarni amalga oshirishda hamda yirik xususiy investitsiyalarni jalb qilishda asosiy omil sifatida ulkan ahamiyatga ega bo‘lgan jarayondir. Mamlakatimizda ham davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini shakllantirishga ham katta e‘tibor qaratilayotganligi, xususan, Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida “O‘zbekistonni 2022–2026-yillardagi vazifalardan kelib chiqqan holda davlat-xususiy sheriklik tamoyili asosida hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining qarorlariga muvofiq amalga oshiriladigan ustuvor islohotlar bo‘yicha energetika, transport, sog‘liqni saqlash, ta‘lim, ekologiya, kommunal xizmatlar, suv xo‘jaligi va boshqa sohalarga 14 mlrd. AQSh dollari investitsiyalarni jalb etish va davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish alohida keltirib o‘tilganligi ham bu munosabatlarni o‘rganishning ahamiyati yuqori ekanligini o‘zida ifodalaydi<sup>13</sup>.

Iqtisodchi olim E.R.Yeskombning fikricha, so‘nggi yillarda davlat-xususiy sheriklik orqali xususiy sektor mablag‘lari hisobidan davlat sektori infratuzilmasini sotib olish va saqlash, transport (yo‘llar, ko‘priklar, tunnellar, temir yo‘llar, portlar, aeroportlar), ijtimoiy infratuzilma (shifoxonalar, maktablar, qamoqxonalar, ijtimoiy uy-joylar), kommunal xizmatlar (suv ta‘minoti, chiqindi suvlarni tozalash, chiqindilarni utilizatsiya qilish), davlat idoralari va boshqa turar joylar hamda boshqa maxsus xizmatlar (aloqa tarmoqlari yoki mudofaa uskunalari) kabi sohalarni moliyalashtirish tobora rivojlanib bormoqda<sup>14</sup>.

<sup>13</sup>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8 yanvardagi “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60 son Farmoni - <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

<sup>14</sup> Йескомб Э.Р. Государственно-частное партнерство: Основные принципы финансирования (Public-Private Partnership Principles of Policy and Finance.) — М.: Альпина Паблишер, 2015. - 457 с.

Davlat-xususiy sheriklik (DXSh) kategoriyasiga ta'rif ishlab chiqishda yuqoridagi omillarni inobatga olish bilan bir qatorda mazkur ilmiy yo'nalishdagi qator iqtisodchi olimlarning ilmiy yondashuvlari, xalqaro ekspertlarning amaliy tajribalar asosida berilgan ta'riflarini tadqiq etish natijasida quyidagicha mualliflik ta'rifi shakllantirildi: "Davlat-xususiy sheriklik – davlat va xususiy sektor o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan infratuzilma loyihalarini amalga oshirish va xizmatlarni taqdim etishga mo'ljallangan strategik, institutsional va iqtisodiy-moliyaviy hamkorlik shaklidir". Shuningdek, davlat-xususiy sheriklik – bu kooperativ kelishuvning bir ko'rinishi bo'lib, ikki yoki undan ortiq davlat va xususiy sektor vakillarining investitsiya, infratuzilma, innovatsiya loyihalarida hamda ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy, shuningdek, davlat ahamiyatiga molik dasturlardagi sheriklik munosabatlari tushuniladi.

Xususiy tarmoq va davlat hamkorligi biznes subyektlarining ishlab chiqarish, maishiy xizmatlar va ijtimoiy infratuzilmani tashkil qilish, boshqarishda hamda ijtimoiy xizmatlarni ta'minlashda ishtirok etishlarini ifodalaydi<sup>15</sup>. Yuqoridagilardan kelib chiqib, davlat va xususiy sheriklik munosabatlari ijtimoiy majburiyatlarga va amalga oshirilishi zarur bo'lgan islohotlarga va davlat investitsiya siyosatiga rioya qilishda hukumatning hamda xo'jalik yurituvchi subyektlarning o'rni va rolini ifodalaydigan iqtisodiy munosabatlar tizimidir. Davlat-xususiy sherikligi infratuzilma obyektlari loyihalarini ishlab chiqish, rejalashtirish, moliyalashtirish, qurish va foydalanish maqsadida yo'lga qo'yilgan davlat bilan xususiy sektor o'rtasidagi xo'jalik munosabati va iqtisodiy aloqalari bo'lib, bunday munosabatlar qo'shimcha moliyalashtirish manbalarini jalb etish maqsadida uzoq muddatlarga mo'ljallanadi.

Iqtisodiy nuqtai nazardan davlat-xususiy sheriklikning maqsadi – tegishli budjet tizimi budjetlari hisobidan taqdim etilishi kerak bo'lgan xizmatlar, ish va iste'mol tovarlarini ishlab chiqarishga xususiy investitsiyalarni jalb qilishni rag'batlantirishdir. To'g'ri tashkil etilgan davlat va xususiy sheriklik munosabatlari subyektlar o'rtasida vazifalarni, majburiyatlarni va moliyaviy risklarni eng optimal tarzda taqsimlaydi. Davlat-xususiy sherikligida davlat tomonidan davlat idoralari, jumladan, vazirliklar, qo'mitalar, mahalliy hokimiyat organlari yoki davlat korxonalari munosabatlarda ishtirok etadi. Xususiy sherik mahalliy yoki xorijiy xo'jalik yurituvchi subyektlar, shuningdek, biror loyihaga tegishli texnik yoki moliyaviy imkoniyatga ega yuridik shaxslar yoki investorlar ishtirok etishi mumkin.

Davlat-xususiy sheriklik amaliyotini tashkil etilishi xususiy sektor bilan davlat o'rtasida hamkorlik munosabatlarini tashkil etishning shakllarini qulay va mosini tanlash, loyiha xususiyatlari va shartlaridan kelib chiqqan holda mos shaklda davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini tashkil etish muhim hisoblanadi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan davlat-xususiy sheriklik munosabatlarining asosiy shakllari turli soha va tarmoqlarda turlicha shakllarda amalga oshirilmogda (1-jadval).

---

<sup>15</sup> Atamurodov T., Hamroyev B. Xususiy tarmoq va davlat hamkorligi. Monografiya, Toshkent moliya instituti. –T.: —Iqtisod-Moliyal, 2013. - 96 b.



Davlat-xususiy sheriklikning asosiy shakllari<sup>16</sup>

Asosiy shakllari	Mazmuni
<b>Qurish-Boshqarish-O'tkazish ((Build, Operate, Transfer – BOT))</b>	O'zaro kelishuv mexanizmi asosida loyihani qurish, shartnoma muddati mobaynida undan foydalanish (egalik qilish huquqsiz) va shartnoma yakunida davlat tasarrufiga o'tkazish.
<b>Qurish - Egalik qilish -Boshqarish - O'tkazish (Build, Own, Operate, Transfer - BOOT)</b>	O'zaro kelishuv mexanizmi asosida loyihani qurish, shartnoma muddati mobaynida egalik qilish huquqi asosida undan foydalanish va shartnoma yakunida davlat tasarrufiga o'tkazish.
<b>Qurish-O'tkazish-Boshqarish (Build, Transfer, Operate - BTO)</b>	Bunda loyiha qurilish yakunlanishi bilan oq davlatga o'tkaziladi. Xususiy sherik unga shartnoma muddati davomida xizmat ko'rsatadi, ko'rsatilgan xizmatlar uchun iste'molchilar uzliksiz ravishda to'lovlarni amalga oshiradi.
<b>Qurish –Egalik qilish –Boshqarish (Build, Own, Operate - BOO)</b>	O'zaro kelishuv mexanizmi asosida loyihani qurish, shartnoma muddati mobaynida egalik qilish huquqi asosida undan foydalanish va shartnoma yakunida ham egalik qilish huquqi xususiy sherikda qoladi.
<b>Qurish-Boshqarish-Xizmat ko'rsatish-O'tkazish (Build, Operate, Maintain, Transfer - BOMT)</b>	Loyihaning hayotiylik davri va unga xizmat ko'rsatilishi davlat tomonidan amalga oshiriladi. Egalik qilish huquqi davlat tasarrufida qoladi.
<b>Loyihalash-Qurish Egalik qilish-Boshqarish-O'tkazish (Design, Build, Own, Operate, Transfer - DBOOT)</b>	O'zaro kelishuv mexanizmi asosida obyektни loyihalashtirish, qurish, shartnoma muddati mobaynida egalik qilish huquqi asosida undan foydalanish va shartnoma yakunida davlat tasarrufiga o'tkazish.
<b>Loyihalash-Qurish-Moliyalashtirish-Boshqarish, (Design, Build, Finance, Operate - DBFO)</b>	Obyektни loyihalash, qurish, boshqarish, shuningdek xususiy sektor tomonidan qurish va xizmat ko'rsatish xarajatlarini moliyalashtirish majburiyatini ham oladi. Davlat xizmatlarga to'lovlar orqali xarajatlarni qoplaydi.


Iqtisodiyot rivojlanishining hozirgi bosqichida davlat va xususiy sheriklik munosabatlari tashkil etilishi mamlakat o'z oldiga qo'ygan taraqqiyot strategiyasining jadallashuviga xizmat qiladi. Jahon banki DXShni ishlab chiqarish va infratuzilma xizmatlarini ko'rsatish sohasidagi davlat va xususiy biznes o'rtasida qo'shimcha investitsiyalarni jalb qilish maqsadida tuzilgan shartnoma va davlat budjetidan moliyalashtirish samaradorligini oshirish vositasi sifatida belgilaydi<sup>17</sup>. Shu bois, davlat-xususiy sheriklik – davlat va xususiy sektor o'rtasida loyihani yanada samaraliroq amalga oshirish sharti bilan sheriklar tomonidan birgalikda amalga oshiriladigan qonuniy-huquqiy asosga ega o'zaro manfaatli hamkorlikdir<sup>18</sup>.

Tadqiqotlarga ko'ra, davlat-xususiy sheriklik asosida loyihalarni amalga oshirish, bunday loyihalarni davlat xaridlari tizimi orqali amalga oshirishdan ancha samaraliroq. Bunda iqtisodiy omil sifatida davlat budjeti mablag'larining yuqori darajada tejamkorlik kasb etishi, shu bilan birgalikda, xususiy sektorning tajriba va resurslaridan foydalanish imkoniyatining mavjudligi bilan asoslanadi (1-rasm).

<sup>16</sup> Muallif tomonidan tuzilgan.

<sup>17</sup> The World Bank. (2019). What are public private partnerships?. <https://ppp.worldbank.org/public-private-partnership/overview/what-are-publicprivate-partnerships>.

<sup>18</sup> Варнавский, В.Г., Королев В.А. Государственно-частное партнерство: теория и практика // Гос. ун-т — Высшая школа экономики. — М.: Изд. дом ГУ-ВШЭ, 2010. — С. 9



**1-rasm. Loyihani davlat sherigi tomonidan moliyalashtirishdagi farqli jihatlar (budget hisobidan)<sup>19</sup>**

O‘zbekistonda davlat-xususiy sheriklik loyihalari bozorini rivojlantirish masalalariga e’tibor qaratish, shuningdek xususiy sektor va mahalliy investorlar o‘rtasida sog‘lom raqobatni shakllantirish va loyihalarni amalga oshirishda xususiy investorlar monopoliyasiga yo‘l qo‘ymaslik chora-tadbirlar davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini muvofiqlashtiruvchi institutsional tuzilma tomonidan ishlab chiqilishi lozim. Sog‘liqni saqlash tizimi, xalq ta’limi, kommunal xo‘jalik va infratuzilmani rivojlantirishda davlat va xususiy sherikligini amalga oshirilishi ushbu sohalarni rivojlanish jarayoniga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Bunday hamkorlik davlat xizmatlari sifatini yaxshilashga va davlat budgetiga tushadugan bosimni kamaytirishga xizmat qiladi. Shuningdek, iqtisodiy foydani maqsad qilgan xususiy sektor o‘z faoliyatida tinimsiz ravishda innovatsiyani targ‘ib qiladi. Natijada, tarmoqda rivojlanish kuzatiladi. Shuningdek, mamlakat iqtisodiyotining diversifikatsiya qilinishida, infratuzilma bazasi mustahkamlanishida, qurilish sohasida, xizmat ko‘rsatish sohasida innovatsion texnologiyalar va asbob-uskunalarni joriy etilishini rivojlantirishda, korxonalarining raqobatdoshligining oshirilishida aynan davlat-xususiy sheriklik munosabatlari orqali yanada tez va samarali erishilishi ta’minlanadi. Bu esa davlat o‘z oldidagi vazifalarini to‘liq bajarilishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Davlat-xususiy sherikligining moliyaviy mexanizmi – mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasida infratuzilma loyihalarini amalga oshirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida iqtisodiyotning davlat va xususiy sektorlari o‘rtasidagi o‘zaro sheriklik asosidagi moliyaviy munosabatlarni tashkil etish shakllari va usullarining to‘plami hisoblanadi. Mamlakatimizda davlat-xususiy sheriklikni qo‘llab-quvvatlashning moliyaviy instrumentlariga subsidiyalar, shu jumladan xususiy sherikning davlat-xususiy sheriklik loyihasini

<sup>19</sup> Развитие ГЧП в регионах РФ. Рейтинг регионов ГЧП 2016-2017. URL: [www.pppcenter.ru/assets/docs/raytingREG2017\\_B5\\_Block\\_31-03-2017-web.pdf](http://www.pppcenter.ru/assets/docs/raytingREG2017_B5_Block_31-03-2017-web.pdf) (Дата обращения 01.02.2017)

amalga oshirishdan oladigan, kafolatlangan eng kam daromadini ta'minlashga yo'naltiriladigan subsidiyalar, davlat-xususiy sheriklik loyihasini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan aktivlar va mol-mulk tarzidagi qo'yilmalar, davlat-xususiy sheriklik loyihasini amalga oshirish jarayonida ishlab chiqarilgan yoki yetkazib berilgan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) muayyan miqdorini yoki bir qismini iste'mol qilganlik yoki ulardan foydalanganlik uchun to'lovga yo'naltiriladigan O'zbekiston Respublikasi budjet tizimi budjetlari mablag'lari, budjet ssudalarini, qarzlarini, grantlarini, kredit liniyalarini va moliyalashtirishning boshqa turlarini berish, investorlar tomonidan majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash maqsadida o'zaro kelishuvga ko'ra qo'shimcha kafolatlar, soliq imtiyozlari va boshqa imtiyozlar, boshqa kafolatlar va (yoki) kompensatsiyalarni o'z ichiga oladi.

Tadqiqotning **“Infratuzilma loyihalarini davlat-xususiy sheriklik asosida amalga oshirishning rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar amaliyoti tahlili”** nomli ikkinchi bobida xalqaro amaliyotda infratuzilma loyihalarini xususiy sektor ishtirokida moliyalashtirish tahlili, davlat tomonidan davlat-xususiy sheriklik amaliyotini moliyaviy qo'llab-quvvatlash yo'nalishlari, xorijiy mamlakatlarda davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini rivojlantirishning asosiy jihatlari loyihalarda xususiy sektor ishtirokidagi muammolar va ularni hal qilish yo'llari atroflicha o'rganilgan, investitsion jozibadorlikni oshirish orqali davlat-xususiy sheriklikda investorlar faolligini oshirish yo'nalishlari keltirilgan.

2020-2022 yillarda mintaqalar kesimida YaIM hajmining o'zgarishi hamda unga nisbatan DXSh loyihalari uchun sarflangan mablag'larning o'sish sur'ati tahliliga ko'ra, eng katta o'sish Sharqiy Osiyo va Tinch okeani hududi davlatlariga to'g'ri kelganini ko'rish mumkin, ya'ni 2020-yilga nisbatan salkam 5 barobar ko'proq mablag'lar jalb etilgan (2-jadval).

## 2-jadval

### Mintaqalarda YaIM va ulardagi davlat-xususiy sheriklikning ulushi tahlili<sup>20</sup>

Mintaqalar	DXSh (mln. AQSh dollarida)			YaIM (mln. AQSh dollarida)			DXSh/YaIM (foizda)		
	2020	2021	2022	2020	2021	2022	2020	2021	2022
Sharqiy Osiyo va Tinch okeani hududi	9500	28081	43374	17207134	17448895	20751789	0,06	0,16	0,21
Yevropa va Markaziy Osiyo	4600	15016	3321	3248044	3222404	3517372	0,14	0,47	0,09
Lotin Amerikasi va Karib dengizi hududi	14000	18589	24328	4769077	4035271	4585104	0,29	0,46	0,53
O'rta sharq va Shimoliy Afrika	1200	626	1969	1408624	1195746	1490438	0,09	0,05	0,13
Janubiy Osiyo	10200	8693	13869	3658004	3386420	4088770	0,28	0,26	0,34
Afrika	6300	5202	4869	1821727	1702343	1919444	0,35	0,31	0,25

<sup>20</sup>Jahon Banki yillik hisobotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Aksincha, Yevropa va Markaziy Osiyo shuningdek, Afrika mintaqalarida esa DXSh loyihalariga yo‘naltirilgan mablag‘lar yildan-yilga kamaygan. Lotin Amerikasi va Karib dengizi hududi davlatlarida, yiliga o‘rtacha 5 mlrd. dollarlik o‘shish kuzatilgan. O‘rta Sharq va Shimoliy Afrika hamda Janubiy Osiyo mintaqalarida 2021-yilda biroz pasayish kuzatilgan bo‘lsa-da, yakunda ijobiy tendensiya yakunlangan. Umuman, yuqorida tahlil qilingan hududlarda, so‘nggi 3 yilda DXSh loyihalariga 200 mlrd. dollardan oshiqroq mablag‘ yo‘naltirilgan.

Davlat tomonidan davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini qo‘llab-quvvatlash loyihaga xususiy investorning bo‘lgan qiziqishini ortishiga sabab bo‘ladi. Davlat-xususiy sheriklik amaliyotida infratuzilma xizmatlarida narxlarni barqaror ushlab turish, davlat-xususiy sheriklik loyihasini hayotga tatbiq etish maqsadida xususiy sherik uchun davlat tomonidan turli xil ko‘rinishda moliyaviy ko‘maklar berilishi mumkin. Davlat kafolatlari, minimal daromadni kafolatlash, subsidiyalar, kapital kiritish, soliqlarni pasaytirish, aktivlarni birlashtirish kabi xalqaro amaliyotda DXShni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash moliyaviy mexanizmlar qo‘llaniladi.

Davlat-xususiy sheriklikda moliyaviy munosabatlar samaradorligi bo‘yicha davlatning va xususiy sherikning samaradorliklarini alohida taqqoslangan holda, xususiy sherik mehnatni boshqarish munosabatlari, tashkiliy tuzilmalar, rag‘batlantirish tizimlari xodimlarni tanlash va boshqa ko‘rsatkichlarda davlatdan ko‘ra samarali faoliyat ko‘rsatishi mumkin<sup>21</sup>. Bunda, DXSh davlatlar va xususiy sektor uchun ularning infratuzilmani boshqarishda tashkiliy tuzilmalarda yuzaga keladigan samarasizlikni kamaytirish uchun zarur bo‘lishi mumkin. Darhaqiqat, DXSh xususiy sektor tajribasini qo‘llash orqali infratuzilma investitsiyalari uchun kapital miqdorini va faoliyat samaradorligini oshirishi mumkin, ammo bu jarayonlar har doim ham turli xil loyihalar uchun bir xilda amalga oshiravermaydi. Bunda loyiha xususiyati, daromadliliigi muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun davlat-xususiy sheriklikda infratuzilmaning turli xil sohalariga turlicha yondashuv zarur bo‘ladi. “Iqtisodiy va ijtimoiy hayotning bir qancha sohalarida DXShning turli xil potentsial afzalliklari mavjud bo‘lsa-da, yaxshi tashkil etilgan DXSh amaliyoti tizimli va samarali moliyaviy munosabatlarda aks ettirilmasa, muvaffaqiyatsizlik ehtimoli muvaffaqiyat ehtimolidan yuqori bo‘lishi mumkin”.<sup>22</sup> Shuningdek, davlat-xususiy sheriklikning muvaffaqiyatli bo‘lishida davlat moliyasining barqarorligi va bozor hajmi infratuzilmaga investitsiyalar ko‘lamiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatsa, soliq yukining baland bo‘lishi hamda yuqori darajada inflyatsiya salbiy ta‘sirini namoyon qiladi<sup>23</sup>.

Odatda DXSh asosidagi infratuzilma loyihasi katta miqdordagi boshlang‘ich investitsiyani o‘z ichiga oladi va loyihaning amal qilish muddati davomida to‘langan operatsiyalar va texnik xarajatlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu xarajatlar umumiy xarajatlarning nisbatan kichik ulushda va bu DXShning bir nechta


---

<sup>21</sup> Leibenstein, H. (1966). Allocative efficiency vs. X-efficiency. *The American Economic Review*, 56(3), 392e415.

<sup>22</sup> Ahwiring-Obeng, F., & Mokgohlwa, J. P. (2002). Entrepreneurial risk allocation in public-private infrastructure provision in South Africa. *South African Journal of Business Management*, 33(4), 29e39.

<sup>23</sup> Hammami, M., Ruhashyankiko, J.-F., & Yehoue, E. B. (2006). Determinants of public private partnership in infrastructure. IMF working paper, WP/06/ 99.

xususiyatlarini aniqlaydi. Quyidagi rasmda DXSh loyihasi moliyaviy oqimlarining odatiy vaqt yo‘nalishlari ko‘rsatilgan(2-rasm).



**2-rasm. DXSh loyihalarida pul oqimlarining vaqt bo‘yicha o‘zgarishi, (mln. AQSH dollari)<sup>24</sup>**

DXSh loyihalarining qo‘shimcha iqtisodiy tavsifini tushunish va moliyaviy tuzilmalarni tanlash muhimdir. Bunda, DXSh loyihalari qurilish hamda operatsion bosqichida mustaqil boshqaruvni talab qiladi. Bundan tashqari, ko‘pincha qurilish yoki foydalanish orqali amalga oshiriladigan ikki yoki undan ortiq DXSh loyihalari birgalikda amalga oshirilishi mumkin. Biroq, loyihalar bir-biridan uzoqda joylashgan bo‘lsa, bunda qayerda xizmat ko‘rsatiladi, qayerda iste‘mol qilinadi degan savolga aniqlik kiritib olinadi hamda buning natijasida samaradorlik oshadi.


Dissertatsiyaning **“Davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarida amalga oshirilayotgan loyihalar va ularning samaradorlik tahlili”** deb nomlangan uchinchi bobida infratuzilma loyihalarini amalga oshirishda davlat va xususiy sektor hamkorligining moliyaviy mexanizmi, davlat-xususiy sheriklik asosida infratuzilmani moliyalashtirishning asosiy yo‘nalishlari, davlat-xususiy sheriklik asosidagi infratuzilma loyihalari va ularning moliyaviy samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlili, xalqaro amaliyotda infratuzilma loyihalarini xususiy sektor ishtirokida moliyalashtirish tahlili amalga oshirilgan.

DXSh mexanizmlari orqali investitsiyalarni jalb qilishda avvalo katta miqdorda kapital qo‘yilmalarni talab etuvchi sohalarga yo‘naltirish maqsadga muvofiqdir. Bunda transport, energetika, yo‘l, kommunal xo‘jalik, tibbiyot, ta‘lim kabi sohalarga DXSh mexanizmlarini kengroq tatbiq etish, sohalarda bo‘yicha yillik kapital qo‘yilmalarning talab etiladigan hajmi, uni davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari orqali moliyalashtiriladigan ulushi va muddatlarini aniq belgilash, DXSh asosida amalga oshiriladigan loyihalar bo‘yicha davlat majburiyatlarini kafolatlash mexanizmlarini joriy etish, davlat-xususiy sheriklik loyihalarini tuzish borasidagi maqsadli ko‘rsatkichlar, chora-tadbirlar va tarmoq rejalarini belgilash, DXSh loyihalarining ijro etilishini muntazam monitoring qilish, davlat-xususiy sheriklik loyihalarining samaradorligi va amaliy natijadorligini baholashga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirish lozim. Chunki, “DXSh loyihalarining

<sup>24</sup> Eduardo Engel, Ronald Fischer and Alexander Galetovic Finance and Public-Private Partnerships. The American Economic Review, 2018, 87(2), pp 68–72.

muddati bilan uning moliyaviy samaradorligi balanslilikini ta'minlash sheriklikdagi tomonlarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashning samarali yo'li hisoblanadi"<sup>25</sup>.

Maktabgacha ta'lim agentligi ma'lumotlariga ko'ra 2022 yil yakunlariga ko'ra mamlakatimizda 1 301 ta DXSh asosidagi (yirik loyihalar) hamda 20 408 ta oilaviy shakldagi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyat yuritib kelmoqda<sup>26</sup>. 2021-2022 yillarda 172 525 tarbiyalanuvchi quvvatiga ega 1638 ta bitimlar imzolangan bo'lib, shundan 262 tasida kredit mablag'lari jalb etilmagan. Qolgan 118 042 tarbiyalanuvchi quvvatiga ega 1190 ta loyihalarga 2,1 trln. so'm miqdorida imtiyozli kreditlar ajratilgan. Shu bilan birga, mazkur loyihalarga 1,3 trln. so'm tadbirkorlar tomonidan investitsiya mablag'lari yo'naltirilgan. Mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimda davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish maqsadlarida nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlariga 2018-2022-yillarda jami 4030.0 mlrd. so'm miqdorida subsidiyalar ajratilgan (4-rasm).



**4-rasm. 2018-2022 yillarda maktabgacha ta'lim sohasida DXShni rivojlantirish maqsadida davlat budjetidan ajratilgan subsidiya mablag'lari hajmi, mlrd. so'mda<sup>27</sup>**

DXSh loyihalariga yo'naltiriladigan mablag'lar samaradorligini oshirish shubhasiz, muhim. Bunda ayrim iqtisodchi olimlar loyihaning diskont stavkasi sifatida kapitalning o'rtacha tortilgan bahosini olishini maqul ko'rishadi.<sup>28</sup> Hozirgi kunda mamlakatimizdagi aksiyadorlik jamiyatlari kapital bahosini baholashda mavjud standartlar rivojlangan mamlakatlar hisoblash standartlariga mos kelmasligi, aksiyadorlik jamiyatlarida dividend miqdorlari nobarqaror ekanligi, diskontlangan pul oqimlari usulidan foydalanishda muammolar mavjud hisoblanadi. Yuqoridagilardan kelib chiqib davlat-xususiy sheriklik loyihalarida diskont stavkani kapital bahosi ko'rsatkichida hisobga olish samarali usul

<sup>25</sup>Hanaoka S. and Palapus H.P., Reasonable concession period for build-operate-transfer road projects in the Philippines, International Journal of Project Management, 30 (2012), pp. 938-949


<sup>26</sup> <https://mpe.uz/post-detail/posts/news/2356>

<sup>27</sup> <https://mpe.uz/post-detail/posts/news/2356> -sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

<sup>28</sup> Xudoyqulov, X. "THE VALUATION OF THE CAPITAL. AS A CASE OF JSC «KOKAND MECHANICAL PLANT»." *Архив научных исследований* 4.1 (2022).

hisoblanmaydi va real natijalar taqdim etmaydi. Bunday sharoitda DXSh loyihalarida pulning vaqt bo'yicha qiymati omilini hisobga olgan holda loyihaning kelgusida kutilayotgan daromad va xarajatlarini joriy qiymat hisobida aniqlash va diskont stavka qiymatini yillik qisqa muddatli davlat obligatsiyalari daromadlilik stavkalaridan kam bo'lmagan miqdorlarda belgilash orqali xususiy investorning daromadlari real qiymatlarda hisobga olinishiga erishiladi. Chunki bugungi kunda davlat qisqa muddatli obligatsiyalarining daromadliliigi real iqtisodiy holat va bozordan kelib chiqib belgilanishini inobatga olsak, DXSh loyihalarida diskont stavka sifatida qo'llash maqsadga muvofiq.

Mamlakatda pul-kredit operatsiyalari bank tizimi umumiy likvidligini tartibga solish orqali qisqa muddatli foiz stavkalarini boshqarishga yo'naltirilgan hamda asosiy hisob-kitoblarda bozor prinsiplarida foizlarni hisobga olish imkonini yaratadi. Markaziy bank tomonidan ushbu operatsiyalar foiz koridori mexanizmi asosida amalga oshiriladi va pul bozori foiz stavkalarining asosiy stavkaga nisbatan  $\pm 2$  foizlik koridorda shakllanishini ta'minlaydi. Davlat qisqa muddatli obligatsiyalari asosiy foiz stavkasiga nisbatan yuqoriroq koridorda aks etishi orqali bunday obligatsiyalarning real daromadliliгинi yuqoriroq baholash mumkin (5-rasm).



### 5-rasm. Qisqa muddatli davlat obligatsiyalari daromadliliгинing inflyatsiya darajasi va asosiy stavkaga taqqoslama tahlili (yillik foizda)

Taklif etilayotgan jihat esa DXSh loyihalarida diskont stavkani davlat qisqa muddatli obligatsiyalari foiz stavkasidan kam bo'lmagan miqdorlarda belgilash orqali loyihalarning pul oqimlari real ko'rsatkichlarda hisoblanishini nazarda tutadi.

DXSh loyihalarida pulning vaqt bo'yicha qiymati omilini hisobga olgan holda loyihaning kelgusida kutilayotgan daromad va xarajatlarini joriy qiymat hisobida aniqlash va diskont stavka qiymatini yillik qisqa muddatli davlat obligatsiyalari daromadlilik stavkalaridan kam bo'lmagan miqdorlarda belgilash orqali maktabgacha ta'lim sohasida DXSh loyihalaridan kutilayotgan daromad va xarajatlarni real ko'rsatkichlarda belgilash, xususiy investorning real kutilayotgan daromadliliğini ta'minlanadi. Bunda diskont stavkani mamlakat asosiy stavkasidan kam bo'lmagan miqdorlarda olish orqali xususiy investorlarni loyiha

dovomiyligida inflyatsion va foiz risklardan ma'lum darajada himoyalashga erishiladi. DXSh loyihalari davomiyligi uzoq muddatli ekanligini hisobga olgan holda bunday moliyaviy jarayonlarni hisobga olish orqali xususiy investorlar moliyaviy risklardan himoya qilinadi.

O'zbekistonda oliy ta'lim sohasidagi DXSh loyihalar davlat sherigi sifatida O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tasarrufidagi oliy ta'lim muassasalari va xususiy sherik sifatida mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan DXSh shartnomasi asosida amalga oshirilmoqda (3-jadval).

### 3-jadval

#### Oliy ta'lim muassasalari ishtirokida amalga oshirilayotgan davlat-xususiy sheriklik loyihalari tahlili<sup>29</sup>

Kod <sup>30</sup>	Davlat sherigi	Xususiy sherik	Davlat-xususiy sheriklik shakli	Loyiha muddati	Loyiha moliyalashtirish manbasi	Loyiha daromad manbasi
L1	Toshkent moliya instituti	«SHAXRUZBEK HALIMJON QURILISH» MChJ	loyihalash, qurish, moliyalashtirish, foydalanish, xizmat ko'rsatish va qaytarish	21 yil	Xususiy sherik mablag'lari	Foydalan-ganlik uchun to'lov
L2	Shahrisabz davlat pedagogika instituti	«The Best Story in Samarkand» MChJ	loyihalash, qurish, moliyalashtirish, foydalanish, xizmat ko'rsatish va qaytarish	30 yil	Xususiy sherik mablag'lari, davlat subsidiyalari	Foydalan-ganlik uchun to'lov
L3	Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti	«HIGH-TECH HOUSE BUILD» MChJ	loyihalash, qurish, moliyalashtirish, foydalanish, xizmat ko'rsatish va qaytarish	14 yil	Xususiy sherik mablag'lari	Foydalan-ganlik uchun to'lov
L4	Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali	«D7X7Sh» MChJ	loyihalash, qurish, moliyalashtirish, foydalanish, xizmat ko'rsatish va qaytarish	30 yil	Xususiy sherik mablag'lari, davlat subsidiyalari	Foydalan-ganlik uchun to'lov
L5	Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti	«NEW HAUSE SITY» MChJ	loyihalash, qurish, moliyalashtirish, foydalanish, xizmat ko'rsatish va qaytarish	30 yil	Xususiy sherik mablag'lari, davlat subsidiyalari	Foydalan-ganlik uchun to'lov
L6	Toshkent davlat agrar universiteti	«New-Brend-House» MChJ	loyihalash, qurish, moliyalashtirish, foydalanish, xizmat ko'rsatish va qaytarish	30 yil	Xususiy sherik mablag'lari, davlat subsidiyalari	Foydalan-ganlik uchun to'lov
L7	Andijon davlat pedagogika instituti	«NURMATOV HIGH-TECH BUILD» MChJ	loyihalash, qurish, moliyalashtirish, foydalanish, xizmat ko'rsatish va qaytarish	30 yil	Xususiy sherik mablag'lari, davlat subsidiyalari	Foydalan-ganlik uchun to'lov
L8	Jizzax politehnika instituti	«BOURSA NATIONAL» MChJ	loyihalash, qurish, moliyalashtirish, foydalanish, xizmat ko'rsatish va qaytarish	18 yil	Xususiy sherik mablag'lari	Foydalan-ganlik uchun to'lov
L9	Namangan muhandislik-qurilish instituti	«Nifrit Impex» MChJ	loyihalash, qurish, moliyalashtirish, foydalanish, xizmat ko'rsatish va qaytarish	30 yil	Xususiy sherik mablag'lari, davlat subsidiyalari	Foydalan-ganlik uchun to'lov


<sup>29</sup> Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish agentligi rasmiy sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi (<https://pppd.uz/projects-custom>).

<sup>30</sup> Keyingi o'rinlarda ushbu kodlar orqali tegishli davlat-xususiy sheriklik loyihalari nazarda tutiladi



Talabalar turar joylarini qurish bo'yicha DXSh loyihalari asosan loyihalash, qurish, moliyalashtirish, foydalanish, xizmat ko'rsatish va qaytarish shaklida 14 yildan 30 yilgacha amalga oshirilishi belgilangan. Ushbu loyihalarining asosiy daromad manbasi foydalanganlik uchun to'lov, erkin foydalanilishi uchun to'lov va boshqa daromad shakllari hisoblanadi. Shuningdek, mazkur loyihalar ijtimoiy-iqtisodiy va infratuzilmaviy vazifani hal etishga qaratilgan hamda xususiy tashabbuskor oliy ta'lim maussasasi talabalariga to'liq davlat sherigi bilan kelishilgan narxlarda yotoq joy bilan ta'minlash xizmatlarini ko'rsatish belgilangan. Tashabbus qilinayotgan loyihani amalga oshirishga xususiy tashabbuskorning moliyaviy resurslari mavjudligi, xizmatlar ko'rsatish sohasida tajribaga ega ekanligi va bugungi kunda mazkur loyiha dolzarb ijtimoiy masalalardan biri bo'lganligi sababli loyihani amalga oshirish muhimdir.

DXSh loyihalarini amaliyotga joriy etishda, eng avvalo, mukammal loyihalashtirish bosqichidan o'tishi hamda iqtisodiy va moliyaviy jihatdan modellashtirilgan holatda amalga oshirish maqsadga muvofiq. Keltirilgan davlat-xususiy sheriklik loyihalarini tahlil qilish asosida xususiy investorlarning kutilayotgan investitsion qaytim darajasi hisoblab chiqildi va natijada loyihalarda xususiy investorlarning investitsion qaytim darajasi va investitsion xarajatlari aniqlandi (6-rasm).



**6-rasm. Davlat-xususiy sheriklik loyihasi investitsion xarajatlari va xususiy investorning investitsion qaytim darajasi<sup>31</sup>**

Investorning kutilayotgan investitsion qaytim darajasi (ROI) DXSh loyihalarini amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Tahlil qilinayotgan loyihalarga ko'ra L1 DXSh loyihasida ROI ko'rsatkichi nisbatan pastroq (24.6 foiz), qolgan loyihalarda esa ROI ko'rsatkichi o'rtacha 45-50% atrofida ekanligini keltirishi mumkin. ROI ko'rsatkichini DXSh loyihalarida sof joriy qiymatning yuqori bo'lishiga sabab bo'ladi. Chunki xususiy investor o'zi uchun sof joriy qiymatni aniqlashda ushbu ko'rsatkichni inobatga oladi.

DXSh loyihalarining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi hamda, xususiy investorlarni kengroq jalb etilishida davlat subsidiyalari samarali hisoblanadi. Talabalar turar joylarini qurishda davlat sherigi va xususiy sherik o'rtasida tuzilgan

<sup>31</sup> Muallif tomonidan tuzilgan.

DXSh to'g'risidagi bitimga muvofiq tegishli tartibda subsidiya ajratiladi. Bunda biz taklif etayotgan jihat xususiy sherikka ijtimoiy loyihalar doirasida talabalar turar joyi qurish uchun davlat sherigi tomonidan loyiha dastlabki bosqichida xususiy sherikning bankdagi hisobvarag'iga loyiha umumiy qiymatining 15 foizi miqdorida subsidiyalar ajratish xususiy sherikni loyihaning ilk davrlarida davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlanishini ta'minlaydi. Natijada, talabalar turar joylari qurilishini DXSh asosida amalga oshirish va bunda xususiy sherikni qo'llab-quvvatlash maqsadida davlat budjeti mablag'laridan subsidiyalar ajratilishi orqali davlat-xususiy sheriklik munosabatlari yanada kengayadi.

Davlat-xususiy sheriklik loyihalarida qarz kapitali orqali ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish obyektlari normal faoliyat yuritishida zarur bo'lgan qurilish, rekonstruksiya yoki texnikaviy qayta qurollantirish (DXSh loyihasi va smeta hujjatlarini ishlab chiqish va ekspertizasini o'tkazish, asbob-uskunalar xarid qilish, qurilish-montaj va boshqa ishlar o'tkazilishini o'z ichiga olgan holda) hamda boshqa asosiy fondlarni shakllantirish va shu bilan bog'liq bo'lgan jarayonlarni moliyalashtirish imkoni mavjud bo'ladi.

Qarz kapitalidan foydalanilgan DXSh loyihasida rivojlanishning yuqoriroq moliyaviy salohiyatiga va faoliyat samaradorligining o'sish imkoniyatiga ega bo'linadi, lekin loyiha davomiyligida moliyaviy risk va bankrotlik xavfi yuqoriroq bo'lishi mumkin. Qarz orqali moliyalashtirish DXSh loyihalari moliyaviy samarasini kengaytirishi, korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishi va korxonalarining rivojlanishiga yanada ko'maklashishi mumkin. Boshqa tomondan, loyihalarda qarz orqali moliyalashtirish va leveraj koeffitsiyentini oshirish korxonaning inqiroz riskini oshirishi mumkinligini aks ettiradi va korxonalarining samarali ishlashini ta'minlash uchun ularning operatsion samaradorligini oshirishga, shiddatli raqobat sharoitida qo'shimcha rag'batlantirish uchun doimiy ravishda kengayib borayotgan operatsion xarajatlardan samarali foydalanish imkoniyati yuzaga keladi.

DXSh loyihalarini qarz bilan moliyalashtirishga ta'sir etuvchi asosiy ko'rsatkichlar ekonometrik tahlili amalga oshirildi. Buning uchun Jahon banking infratuzilmaga xususiy investitsiyalar ma'lumotlar bazasidan qarz kapitali orqali moliyalashtirilgan 1845 ta davlat xususiy sheriklik asosidagi loyihalar tanlab olindi. Tahlil natijalariga ko'ra, davlat-xususiy sheriklik loyihalari samaradorligini oshirishda qarz kapitali bilan moliyalashtirish yuqori ahamiyatga ega, degan gipoteza shakllanishiga xizmat qildi (4-jadval).

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, birinchi modelda loyiha muddati (period) va moliyaviy leverej koeffitsiyenti qarzga ta'sir etish qiymatlari statistik ahamiyatga ega bo'ldi. Muddatning bir birlikka ortishi qarz darajasini -18.454 birlikka kamayishiga sabab bo'ladi. Ikkinch modelda loyihani xalqaro qarz bilan moliyalashtirish darajasi bilan DXSh loyihasiga yo'naltirilgan investitsiyalar qarzni ortishiga xizmat qiladi. Mos ravishda loyihani xalqaro qarz bilan moliyalashtirish darajasi va davlat-xususiy sheriklik loyihasiga yo'naltirilgan investitsiyalarning bir birlikka ortishi qarzni 0.417 va 0.623 birlikka ortishiga olib keladi. Uchinchi modelda loyihani davlat tomonida qo'llab-quvvatlash darajasi, asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi va davlat-xususiy sheriklik loyihasiga yo'naltirilgan investitsiya koeffitsiyentlar t-test bo'yicha iqtisodiy ma'noga ega

bo‘lmoqda. Barcha modellarning ishonchliligi F-test, t-test va OLSning Gaus Markov shartlariga tekshirildi hamda ishonchli ekanligi aniqlandi.

4-jadval

Qarz bilan moliyalashtirish hajmi (debt)	Regressiya natijalari <sup>32</sup>		
	OLS (1)	OLS (2)	OLS (3)
loyiha muddati( <i>period</i> )	-18.454** (8.511)		-1.261 (1.307)
loyihani davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash darajasi ( <i>VDGS</i> )	-.249 (0.555)		-.3*** (0.043)
xususiy sektor ishtiroki ( <i>private</i> )	2.133 (2.138)		0.059 0.698
asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi ( <i>physical</i> )	0.483 (2.086)		-1.193*** (0.327)
moliyaviy leverej koeffitsiyenti ( <i>f_leverage</i> )	22.805** (9.745)		
loyihani xalqaro qarz bilan moliyalashtirish darajasi ( <i>intl_debt</i> )	0.036 (0.333)	0.417*** (0.096)	
davlat qarzi hisobidan moliyalashtirish ( <i>p_debt</i> )		0.189 (0.135)	
mahalliy qarz bilan moliyalashtirish darajasi ( <i>l-debt</i> )		-.054 (.036)	
davlat-xususiy sheriklik loyihasiga yo‘naltirilgan investitsiyalar ( <i>investment_real</i> )	0.07 (1.997)	0.623*** (0.031)	1.63*** (0.289)
loyihaning daromad shakllari ( <i>prs</i> )	38.107 (35.576)	-13.78 (19.073)	-.229 (4.353)
Constant	23.164 (220.278)	-18.39 (68.527)	61.62 (64.698)
R-squared	0.967	0.938	0.965
F-test	42.223	215.676	562.390
Akaike crit. (AIC)	296.461	1223.486	1705.759

«Robust» standart xatoliklar qavsda ( $\epsilon$ ) keltirilgan

\*\*\* - ahamiyatlilik darajasi  $p < 0.01$  (99%); \*\* - ahamiyatlilik darajasi  $p < 0.05$  (95%);


\* - ahamiyatlilik darajasi  $p < 0.1$  (90%)

O‘zbekistonda qarz yuki bo‘yicha joriy holat iqtisodiy rivojlanish darajasi bo‘yicha mamlakatimiz bilan bir guruhga kiruvchi davlatlarning ko‘rsatkichlari doirasida shakllangan bo‘lsada, xususiy sektorga ajratilgan kreditlar yuki bo‘yicha MDHning aksariyat mamlakatlariga nisbatan yuqori ko‘rsatkich qayd etilgan.

Xususiy sektorga ajratilayotgan bank kredit foiz stavkalari bo‘yicha O‘zbekiston bo‘yicha 2013-2022-yillardagi tahliliga ko‘ra, o‘rtacha ko‘rsatkich 18,39 foizni, minimal ko‘rsatkich 13,52 foiz (2016-yilda), 2019-yilda esa maksimal ko‘rsatkich 23,61 foizni tashkil qilgan. 2022-yildagi oxirgi ko‘rsatkich 21,75 foizni tashkil etgan. Taqqoslash uchun, “2022-yilda 78 ta davlat bo‘yicha

<sup>32</sup> Stata dasturi yordamida muallif tomonidan tayyorlandi.

dunyo bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich 11,80 foizni tashkil etgan"<sup>33</sup>. Bank marjasi dinamikasi esa O'zbekistonda 2015-2022-yillarda quyidagicha (7-rasm).



**7-rasm. Xususiy sektorga bank kreditlari bo'yicha foiz stavkalari va bank marjasi, foizda<sup>34</sup>**

O'zbekiston bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich tahlil qilingan davrda 4,9 foizni, 2017-yilda minimal 3,18 foizni, 2015-yilda esa maksimal ko'rsatkich 6,32 foizni tashkil etgan. 2021-yildagi oxirgi ko'rsatkich 4,41 foizni tashkil etadi. "Taqqoslash uchun, 2021-yilda 135 ta davlat bo'yicha dunyo bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich 3,61 foizni tashkil etgan"<sup>35</sup>.

Mamlakatimizda investitsion loyihalarni moliyalashtirishda bank kreditlari hajmi o'sish tendensiyasiga ega bo'lmoqda. Bu esa o'z navbatida DXSh loyihalarini moliyalashtirishda ham qo'l kelmoqda. Shu bilan birgalikda, DXSh loyihalarida bank kreditlari orqali moliyalashtirishda kredit liniyalarini Markaziy banki qayta moliyalashtirish stavkasi miqdoridagi foiz stavkasiga tijorat banking 2 foizdan ko'p bo'lmagan marjasini qo'shish orqali xususiy sherikga taqdim etish orqali xususiy investorlarni moliyaviy rag'batlantirish mexanizmini shakllantirish maqsadga muvofiq.

Dissertatsiyaning **"Davlat-xususiy sheriklik amaliyotida moliyaviy munosabatlarni samarali tashkil etish istiqbollari"** deb nomlangan to'rtinchi bobida davlat va xususiy sheriklik amaliyotida xususiy sektorning ishtirokini kengaytirish omillari, davlat-xususiy sheriklik loyihalarida xususiy sektor moliyaviy mablag'laridan foydalanishda biznes ijtimoiy mas'uliyatining ahamiyatli jihatlari, davlat-xususiy sherikligida moliyaviy munosabatlarni samarali tashkil etish yo'nalishlari tadqiq etilgan.

DXShda ishtirok etish xususiy sektor uchun nafaqat yangi bozorlarga chiqish va uzoq muddatli biznes istiqbollari belgilash, balki moliyaviy risklarni va xavflarni boshqarishga ham imkon beradi<sup>36</sup>. Biroq shunga qaramasdan, infratuzilma uchun investitsiyaga qaror qabul qilish, an'anaviy investitsiyalarga nisbatan bir muncha murakkab va muhim hisoblanadi. Ilmiy tadqiqotlarda

<sup>33</sup> [https://www.theglobaleconomy.com/Uzbekistan/Lending\\_interest\\_rate/](https://www.theglobaleconomy.com/Uzbekistan/Lending_interest_rate/)

<sup>34</sup> <https://www.theglobaleconomy.com/sayti/ma'lumotlari/asosida/muallif/tomonidan/tayyorlandi>

<sup>35</sup> [https://www.theglobaleconomy.com/Uzbekistan/net\\_interest\\_margin/](https://www.theglobaleconomy.com/Uzbekistan/net_interest_margin/)

<sup>36</sup> Nijkamp, P., and Rienstra, S. A. (1995). "Private sector involvement in financing and operating transport infrastructure." *Ann. Reg. Sci.*, 29(2), 221–235.

keltirilishicha, DXShda xususiy investor ishtiroki bir necha jihatlariga bog‘liq bo‘ladi. Birinchidan, loyihaning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun tajribali, bozorda o‘z o‘rniga ega, raqobatbardosh xususiy sektor subyekti davlat-xususiy sheriklik loyihasi yoki xususiy investor tashabbusidagi loyihalarning muvaffaqiyatining asosi bo‘lishi mumkin<sup>37</sup>. Bundan tashqari, DXSh loyihagini amalga oshirishda moliyaviy rejalashtirish va boshqarish imkoniyatlari, boshqaruvning tashkiliy shakli, boshqaruv strategiyasi, ustunliklari va majburiyatlari ham loyihaga xususiy sektorni jalb etishda ahamiyatga ega hisoblanadi. Shuningdek, davlat uchun ijtimoiy qiymatni yaratish davlat-xususiy sheriklik loyihalarida ishtirok etishning muhim maqsadi ekan, xususiy sherik uchun esa pulning vaqt bo‘yicha qiymatini boshqarish, foydasi uchun qo‘shimcha hissa qo‘shadigan xususiyatlar, tadbirkorlik, tranzaksiya xarajatlarini minimallashtirish va ijobiy tashqi samaradorlikka erishish kabi ba’zi xususiyatlarga ega bo‘lishi kerak. Davlat sektori tomonidan xususiy sherikni tanlash jarayoni ham loyihaga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. DXSh loyihalarida xususiy sherikni tanlash jarayonini imkon qadar sodda va aniq, ochiq va shaffofligini ta’minlash, tender jarayonlarini soddalashtirish va xususiy investor uchun imkon qadar yengilliklarni ta’minlashga e’tibor qaratish lozimdir.

DXSh loyihalarida xususiy investorlarni davlat tomonidan qo‘llab quvvatlashning loyihaning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi, xususiy investorlarning loyihada ishtiroki darajasi, loyihani amalga oshirish muddati muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Xususiy sherikni davlat tomonidan moliyaviy qo‘llab quvvatlashning DXSh loyihalarini moliyalashtirishda xususiy investitsiyalar hajmini va loyihaning amalga oshirilish muddatlarini ekonometrik tahlillar orqali asoslangan.

Tadqiqotlarga ko‘ra, “infratuzilmaga xususiy investitsiyalar hajmi va loyihani moliyalashtirish shakllari”, davlat-xususiy sheriklik loyihalari davlat tomonidan moliyaviy qo‘llab-quvvatlanishi, loyihaning muddati va moliyalashtirish shakllari diversifikatsiyasi, risklar taqsimlanishining yuqori darajasi DXSh loyihalarga xususiy sektor ishtirokini ta’minlashga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Davlat-xususiy sheriklik loyihalarida xususiy investorni davlat tomonidan moliyaviy qo‘llab-quvvatlash orqali loyihalar samaradorligini baholashda quyidagi gipoteza shakllantirildi.

$H_0$ : qisqaroq muddatlarga tuzilgan davlat-xususiy sheriklik loyihalari davlat tomonidan ko‘proq moliyaviy qo‘llab-quvvatlanadi.

$$Y_{VDGS} = \beta_0 + \beta_1 X_{period} + \beta_2 X_{investment} + \varepsilon_i \quad (1)$$

Bunda, VDGS – Direct Government Support Value – davlat-xususiy sheriklik loyihalari davlat tomonidan moliyaviy qo‘llab-quvvatlanishi; *period* – DXSh shartnomalarining muddati, *investment* – davlat-xususiy sheriklik shartnomalariga xususiy investitsiyalar.

2000-2022 yillar oralig‘ida to‘plangan ma’lumotlar asosida STATA dasturidan foydalanib uch xil daromadga ega davlatlar uchun model qiymatlari

<sup>37</sup> Akintoye Li, B., , Edwards P A. J., and Hardcastle, C. (2005). “Critical success factors for PPP/PFI projects in the UK construction industry.” *Constr. Manage. Econ.*, 23(5), 459–471.

ishlab chiqildi. Eng kichik kvadratlar metodidan foydalanilgani uchun modelning statistik va iqtisodiy ahamiyatligi F-test, t-test, determinatsiya koeffitsiyentlaridan tashqari, Gaus Markovning barcha shartlariga tekshirildi (5-jadval).


5-jadval

**Model natijalari<sup>38</sup>**

	Yuqori-o'rta daromad	Past-o'rta daromad	Past daromad
$\beta_1$ Period	-0.23 (0.0327)	-1.6 (0.36)	-2.36 (0.05)
$\beta_2$ investment	0.47 (0.03)	0.14 (0.006)	0.02 (0.004)
Determinatsiya koeffitsiyenti	0.84	0.68	0.24
F test	124.0 (0000)	193.70 (0000)	84.0 (0000)
t test	-7.53 (0000) 19.67 (0000)	-4.46 (0000) 19.67 (0000)	-5.36 (0000) 12.42 (0000)
Breush-pagan hettest	0.54	0.46	0.23
VIF	1.02	1.08	1.06

Bugungi kunda mamlakatimizda ijtimoiy sohalarida ko'plab davlat-xususiy sheriklik loyihalari amalga oshirilayotganligini hisobga olgan holda bu sohadagi loyihalarni amalga oshirishda ko'proq davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlanishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Tanlangan omillar bo'yicha tahlilda davlatlarning rivojlanib borishi DXSh loyihalarining jozibadorligini hamda xususiy investitsiyalar hajmini ko'payishi uchun eng asosiy omil ekanligi aniqlandi. Beta koeffitsiyent qiymati bo'yicha, yuqori-o'rta daromad guruhidagi davlatlarda xususiy investitsiyalar hajmining ortishi, DXSh loyihalarining 0,47 birlikka ko'proq qo'llab-quvvatlanish uchun turtki bo'ladi. Past-o'rta daromad guruhi hamda past daromad guruhidagi davlatlarda xususiy investitsiya hajmining ortishi DXSh loyihalarini 0.14 va 0.02 birlikka ko'proq moliyaviy qo'llab-quvvatlanish uchun sabab bo'ladi (8-rasm).



**8-rasm. Davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-qavvatlashning loyiha muddati va xususiy investitsiyalarga bog'liqligi<sup>39</sup>**

Davlat-xususiy sheriklik loyihalarini davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlashda loyihalarni amalga oshirish muddatlari va xususiy investitsiyalar hajmiga ko'proq e'tibor qaratish zarur, chunki respublikamiz iqtisodiyoti rivojlanib borgani sari yanada xususiy investitsiyalar hajmiga talab oshib boraveradi. Ijtimoiy sohada DXSh loyihalarini xususiy sektor investitsiyalari orqali kamida 50 foizini moliyalashtirish va loyiha davomiyligini 10 yildan kam bo'lmagan


<sup>38</sup> Stata dasturi yordamida muallif tomonidan tayyorlandi.

<sup>39</sup> Stata dasturi yordamida muallif tomonidan tayyorlandi.

muddatlarda amalga oshirilsa davlat tomonida moliyaviy qo‘llab-quvvatlanishi yetarli darajada tashkil etilishi va xususiy investorning daromad ko‘ra olmaslik riski ma‘lum darajada pasayishi mumkin bo‘ladi.

Yashil iqtisodiyot modeliga o‘tishda DXSh mexanizmidan foydalanishning maqsadga muvofiqligi rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasidan isbotlanmoqda. Atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologiyaga oid loyihalarini amalga oshirish muammolari, birinchi navbatda, davlat mablag‘larining ham, xususiy biznesning moliyaviy resurslari yetishmasligi bilan bog‘liqdir. Bugungi kunda davlat va xususiy sektor hamkorligi iqtisodiyotning “yashil” o‘shini ta‘minlashga yo‘naltirilgan investitsiyalarni jalb etishning samarali mexanizmini shakllantirmoqda. Shuningdek, iqtisodiyotning “yashil” o‘shiga yo‘naltirilgan DXSh loyihalarini amalga oshirishda uchta asosiy tarmoq eng katta ulushga ega bo‘lmoqda: qayta tiklanadigan manbalarga asoslangan energiya; suv ta‘minoti va kanalizatsiya; qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash. Aynan shu sohalarda Jahon banki tuzilmalari tomonidan butun dunyo bo‘ylab investitsion loyihalar uchun asosiy moliyaviy yordam ajratilmoqda.

Yaqin istiqbolda respublikamizda yashil energiyaga o‘tishni moliyalashtirish masalasiga to‘xtalib o‘tsak, ushbu maqsadlarga jami 15,4 milliard AQSh dollari miqdoridagi mablag‘larni yo‘naltirish kutilmoqda. Bunda moliyalashtirish manbalari quyidagicha (9-rasm).



**9-rasm. Qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini o‘rnatish, iste‘molchilarni muqobil energiyaga o‘tkazish va energiya tejamkor texnologiyalarni joriy qilishni moliyalashtirish manbalari, mlrd. AQSh dollarida<sup>40</sup>**

Qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini o‘rnatish, iste‘molchilarni muqobil energiyaga o‘tkazish va energiya tejamkor texnologiyalarni joriy qilishni moliyalashtirishda davlat-xususiy sheriklik doirasida xususiy investorlar mablag‘lari yo‘naltiriladigan barcha mablag‘larning 87 foizini tashkil etishi kutilmoqda. Bundan ham xususiy biznes yutadi, ham davlat.

<sup>40</sup> Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish agentligi rasmiy sayti ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi (<https://pppd.uz/projects-custom>).

Bugungi kunda Birlashgan Arab Amirligining Masdar kompaniyasi tomonidan 1,16 milliard AQSh dollariga teng 4 ta loyiha DXSh shartlari asosida amalga oshirib kelinmoqda. Mazkur loyihalarning birinchi navbati joriy 2023-yil dekabrda ishga tushishi kutilmoqda. Saudiya Arabistonining ACWA Power kompaniyasi tomonidan esa 1,307 milliard AQSh dollariga teng 3 ta loyiha ham xuddi shunday shartlar asosida amalga oshirib kelinmoqda. Bunda ishlab chiqarilgan elektr energiyasi davlat tomonidan kafolatli sotib olinishi belgilanganligini alohida qayd etib o‘tish lozim. Bu borada, Masdar kompaniyasi O‘zbekistondagi loyihalarni amalga oshirish uchun xalqaro moliya institutlaridan kredit mablag‘lari jalb qilib kelmoqda (6-jadval).

## 6-jadval

### Masdar kompaniyasi tomonidan Samarqand, Jizzax, Surxondaryo viloyatlarida quyosh foto elektr stansiyalarini qurish loyihalari bo‘yicha olingan kredit mablag‘lari<sup>41</sup>

№	Moliyalashtirayotgan bank	Moliyalashtirish hajmi, mln. AQSh dollarida	Foizda
1.	Osiyo infratuzilma investitsiya banki	83,6	17,63
2.	Yevropa investitsiya banki	83,6	17,63
3.	Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki	205	43,23
4.	Osiyo taraqqiyot banki	102	21,51
	<b>Uchta loyiha bo‘yicha jami</b>	<b>474,2</b>	<b>100</b>

O‘zbekistonda amalga oshiriladigan loyihalar uchun mablag‘lar Masdar kompaniyasi tomonidan xalqaro moliya institutlaridan jalb qilinmoqda. Bunda O‘zbekiston tomonining majburiyati DXSh nuqtai nazaridan kafolatli sotib olishni o‘zida namoyon qiladi. Bunday davlat-xususiy sheriklikni moliyalashtirish mexanizmlarini ko‘plab rivojlanayotgan mamlakatlar tajribalarida uchtarish mumkin. “Yashil iqtisodiyot rivojlantirish jarayonlarida davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kengroq qo‘llash bunday iqtisodiyotni mamlakatda tezroq joriy etishga kengroq yo‘l ochadi”.<sup>42</sup> Mamlakatimizda energetika sohasida juda yirik davlat-xususiy sheriklik loyihalari amalga oshirilmoqda. Energetika sohasida davlat-xususiy sheriklik loyihalarida “yashil energiya” bank-moliya produktlarni joriy etish hisobiga xususiy investorlarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash orqali loyihalarga jalb etish, bunday mexanizmlarni kengaytirish imkoni beradi. Shu bilan birga DXSh loyihalarini moliyalashtirishda yangi va arzon moliyaviy resurslardan foydalanish imkonini oshiradi.

